

**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOY BILAN  
DIPLOMATIK MUNOSABATLAR**

*ShDPI ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi*

**Begaliyev Nurbek**

*ShDPI ijtimoiy fanlar fakulteti tarix yo'nalishi talabasi*

**Axmadova Ruxshona**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'rta asarlarning ikki buyuk davlati Temuriylar va Xitoy (Min) davlatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar hamda ular o'rtasidagi savdo munosabatlarida choy va ot savdosining ahamiyati, Xitoy imperatori saroylarida Movaraunnahrda keltirilgan otlarning mavjud ekanligi to'g'risidagi malumotlar dalillangan. Shuningdek, Amir Temur va Xitoy o'rtasida munosabatlarning keskinlashuvi ham yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Buyuk Ipak Yo'li, Amir Temur, Min imperiyasi, choy a ot savdosi, harbiy ittifoq, munosabatlar keskinlashuvi, Xitoya qarshi yurish.

**Annotation.** In this article, the relationship between the two great states of the Middle Ages, the Timurids, and the Chinese (Ming) states, as well as the importance of tea and horse trade in the trade relations between them, information about the presence of horses brought from Movaraunnahr in the palaces of the Chinese emperors. proven. The tension between Amir Temur and China was also covered.

**Key words:** Buyuk Ipak Yo'li, Amir Temur, Min Empire, tea and horse trade, military alliance, tension of relations, campaign against China.

**Абстрактный.** В данной статье рассмотрены взаимоотношения двух великих государств средневековья Тимуридов и китайских (Минских) государств, а также значение торговли чаем и лошадьми в торговых отношениях между ними, сведения о наличии лошадей привезены из Моварауннара во дворцы китайских императоров доказано. Освещалась также напряженность между Амиром Темуром и Китаем.

**Ключевые слова:** Великий Шелковый путь, Амир Темур, империя Мин, торговля чаем и лошадьми, военный союз, напряженность отношений, поход против Китая.

Uzoq asrlar davomida harakatda bo'lgan Ipak yo'li savdosi XIV asrdagi o'zaro urushlar davrida bir muddat pasayib, uning nisbatan tinch shimoliy tarmog'i taraqqiy etgan. XIV asrning 70-yillarida Movarounnahrda Amir Temur o'zaro urushlarga barham berib, markazlashgan davlat tuzgan bo'lsa, Xitoydan Amir Temur bilan deyarli bir vaqtda oddiy dehqon oilasiga mansub Chji Yuan Chjan yangi mahalliy Min sulolasiga asos solgan. Har ikki davlat ham hukmronlikni saqlab qolish maqsadida

mo‘g‘ullar bilan og‘ir kurash olib borishga majbur bo‘lganlar. Amir Temur parchalanib ketgan Chingizzon merosini qayta birlashtirish yo‘lidan borgan bo‘lsa, Min sulolasi mo‘g‘ullar merosini butunlay yo‘qotishga harakat qilgan. Ammo, Xitoyning mo‘g‘ullar bilan kurashi qiyin kechib, dasht, cho‘l hududlarida istiqomat qiladigan mo‘g‘ullar bilan kurashlarda qo‘sish uchun otlar zarur bo‘lgan. urush holatida mo‘g‘ullar o‘z raqiblariga otlarni sotishi deyarli imkonsiz bo‘lgan. Shu sababli Xitoy Min sulolasi asosan Movarounnahrda tashkil topgan Amir Temur sultanati bilan savdoni rag‘batlantirish va otlar sotib olishni qo‘llab-quvvatlash yo‘lidan borgan. Natijada, Min sulolasi davrida Shimolda mo‘g‘ullar bilan raqiblik davom etgan bir davrda armiyani otlar bilan ta‘minlash davlat ahamiyatidagi vazifa bo‘lib qolgan. Movarounnahrda choy qadranganligi sababli, “qo‘snilarga choy sotish orqali ularni xursand qilish” va choyga ot almashtirishga oid tadbirlar belgilangan. Albatta ot savdosi muhim daromad manbai bo‘lish bilan birga har bir ot yoki uning turini o‘z bahosi bo‘lgan. Asl zotli otlar hamisha qadrlanib, yuqori narxlarda baholangan. Xitoy tarixiga bag‘ishlangan tarixiy adabiyotlardagi ma’lumotlarda, Ayniqsa, Arg‘umoq zotli otlar yuqori baholangan bo‘lib, bu zotdagи otlar xorijga kam chiqarilgan. Chunki, arg‘umoqlarda Amir Temur sultanatining o‘zida ham doimo xaridorlar topilgan. Shuningdek, Xitoy Min sulolasiga ham kam miqdorda etkazib berilgan. Xitoya olis cho‘l, tog‘ va boshqa tabiiy to‘siqlar orqali haydab kelingan kam miqdordagi arg‘umoqlar asosan imperator oilasi shaxsiy otxonasiga olib qolingga. Xitoyda otlar narxini haddan ziyod oshib ketishi va ichki norozilik kelib chiqishini oldini olish maqsadida davlat tomonidan otlar zotini sotib olish va sotish miqdori chegaralab berilgan. Tarixiy adabiyotlarda keltirib o‘tilgan ma’lumotlar tahlili shunday xulosaga kelish uchun asos zotli ot narxi turli ranglardagi atlas matosidan to‘rt bo‘lak, ichki va ustki kiyimlar tikishga mo‘ljallangan tafta matosidan sakkiz bo‘lak deb belgilangan. SHuningdek, tuya uchun uch bo‘lak atlas va o‘n bo‘lak tafta matosi belgilangan bo‘lsa, tatar otlari uchun bir bosh ipak sarposi va sakkiz bo‘lak tafta eng yuqori narx sifatida belgilangan.<sup>1</sup>

1390-yilda samarqandlik savdogar Xitoyning chegara shahri Langchjou bozorida 670 bosh zotdor otlarni sotib, mahalliy hokimda yaxshi ta’surot qoldirgan. Mahalliy hokim imperatorga yo‘llagan hisobotida uga min sulolasi poytaxtda savdo qilish imtiyozini berishni so‘ragan. Arg‘umoq otlar o‘zining uchqurligi bilan shuhrat qozongan bo‘lib, bu kabi otlarni Min sultanatiga olib kelgan savdogar yoki elchi o‘z mamlakatida sotish uchun imperatordan istagan mahsulotini sotib olish imtiyoziga ega bo‘lgan. 1394-yilgi Amir Temur elchilar Min sultanatiga olib kelgan 200 bosh zotdor ot evaziga imperator uyurni haydab kelgan savdogarlarga odatiy sovg‘alardan tashqari Xitoyda savdo qilishni osonlashtirish maqsadida ularga qog‘oz pullar ham ulashgan.

<sup>1</sup> (Kenjayev S.N.Amir Temurning Xitoy bilan munosabatlari tarixi XIV asrning 70- yillari-XV asr boshlari.tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro: 2023,144 b.)

Temuriylar sulolasasi bilan Min sulolasasi o'rtasidagi aloqaXunvu hukmronligining 20-yilidan (1387) boshlab Temur Min sulolasasi bilan harbiy ittifoq o'rnatish maqsadida bir necha marta elchilar yuboradi.<sup>2</sup>

Temur Beyning asosiy raqiblari Sharqdadur, bu eng av valo Katay (Xitoy)ningbuyuk imperatori hisoblanadi. U nasroniylar mazhabilan bo'lib, kuch-qudratda Temur Beyga teng yoxud undan ziyodroqdir.<sup>3</sup> Biroq, Temur o'zining ketma-ket g'alabalari tufayli o'z hududini yanada kengaytirish maqsadida turli mamlakatlar, jumladan, Min sulolasiga qarshi urush e'lon qildi va hatto Min sulolasiga qarshi urush boshlash niyatida 1404-yilda katta qo'shinga boshchilik qildi. Ushbu yurish Temurning kasalligi va to'satdan o'limi tufayli to'xtatildi. 13 yildan beri hibsda saqlangan Min elchilari Fu An va Chen Dyuen mamlakatga qaytishga muvaffaq bo'ldi. Ikki davlat elchilari o'rtasidagi almashuvlar Yungle davrida va Syuande davrida deyarli yiliga bir marta bo'lib turdi. Ikki davlat o'rtasida nefrit almashinuvi haqidagi yozuvlar birinchi marta Syuande hukmronligining ettinchi yilida (1432) paydo bo'lgan.

Amir Temur bir necha kun chuqur o'ylahs va mashvaratdan so'ng Xitoy tomon yurishga qat'iy qaror qildi. Shu vaqtida qishning qattiq chillasi edi. Shu darada qattiq sovuq ediki, oddiy odamlar va xodimlarning ko'pchiligi halok bo'ldi. Qavs oyining boshidan to Xut oyining oxirigacha Jayhun va Sayhun daryolarining barcha kechuvlardan lashkarlar, karvonlar, aravalari, fillar muz ustidan o'tdilar. Sovuqning qattiqligidan til og'izda uyushib qolardi, ona qornidagi bolaga ham zarar yetishi aniq edi. Sakkiz yuz yettinchi yil rajab oyining o'n ikkinchisida (1405-yil 15-yanvar) hazrat Sohibqiron O'tror shahriga kelib tushdi.<sup>4</sup>

Amir Temur Xitoyga qarshi yurish chog'ida qariyb yetmish yosh edi. Bu yurish Temurni Hindiston yurishidan avval jalb etgandi va bu safarga zimdan tayyorgarlik ko'rdi. Bo'lajak urushda eng katta qiyinchilik qo'shinni oziq-ovqat bilan ta'minlash edi. Shu sababdan Amir Temur hali 1397-yildayoq chegara shahar Ashir (Qorashahar)da aholi sonini oshirish haqida buyruq berib, bu yerga 40000otga ega bo'lgan bir necha ming oilani ko'chirib, ularga o'sha yerlarda dehqonchilik va savdoni rivojlantirish, qal'alar qurish va ko'plab oziq-ovqat zaxiralari haqida ko'rsatma berdi. Shu bilan birga Temur G'arbiy Mo'g'uliston va Samarqanddan Xitoyga boruvchi yo'lning shimolidagi yerlarni bosib olish va Xitoyga olib boradiga yo'llarni o'rganish, Mo'g'ulistonda o'ziga sodiq guruhlarni toplash maqsadida mo'lallanayotgan urushdan bir necha yil avval o'z lashkarboshilaridan birini yuborgan va lashkarboshi o'ziga berilgan topshiriqni muvaffaqiyatli bajargan edi. Uzoq yurishga otlanishdan

<sup>2</sup> Temuriylar sulolasasi nefrit buyumlari. Gonkongdag'i Xitoy universiteti. (帖木儿王朝玉器 许晓东 香港中文大学文物馆)

<sup>3</sup> Klavixo "Samarqandga sayohat kundaligi"

<sup>4</sup> "Zafarnoma " Nizomiddin Shomiy

avval Amir Temur mo'ljallagan tadbiriga oqillar diqqatini jalg qilmoqchi bo'ldi. Buning uchun o'z nabiralaridan birini to'yini o'tkazish bahonasida 1404-yil kuzida Samarqanddagi viloyatlarning hukmdorlari, qo'shin boshliqlari, to'ra va amaldorlarni taklif etib 2 oy davom etgan ziyofatlar orasida qurultoy chaqirdi. Mana shu majlisda u Xitoya Islom dinini tarqatish niyati borligini aytadi. Temurning bu fikri majlis qatnashchilari tomonidan so'zsiz qabul qilinib bo'lajak urush muqaddas deb e'lon qilindi. Shu yilning dekabr oyidayoq ulus amirlari va viloyat hokimlarining qo'shnlarni ko'rsatilgan quroq-yarog' bilan ta'minlab, urushga kerakli barcha zaxiralarni tayyorlagan holda tayinlangan joyga to'plash haqida buyruq berildi. Umumiylig' yig'ilish joyi etib Toshkent tayinlandi. Temur bu yurishga 200000 piyoda va otliqlardan iborat saralangan qo'shin yetarli deb hisoblagan. Qo'shining o'ng qanoti qishlash uchun Toshkent, Shohruhia va Sayramda, So'l qanoti esa Yassi va Sarbonda joylashdi. Amir Temur esa qolgan qo'shin bilan O'tror va uning atrofida qishlashni mo'ljalladi. Qo'shnlarga ko'proq qulaylik yaratish hamda yurish uchun kerakli narsalarni xarid qilish uchun ularning qishloq yerlariga turli xil mollari bilan savdogarlar taklif qilindi. Shu bilan birga boshliqlariga ularga tobe jangchilar ahvoli haqida aniq ma'lumot to'plashni, iloji boricha ko'proq qo'shimcha oziq-ovqat va aslahalar olishni, yurish paytida jangchilar hech narsadan qiyalmasliklari uchun hamma sharoitlarni yaratishni buyurdi. Amir Temur Samarqanddan 1405-yil 8-yanvarda yo'lga chiqdi. Muzlagan Sirdaryodan Zarnuq shahri yaqinida o'tib oldi. Qish shunchalim sovuq ediki, Sharafiddin Ali Yazdiyning guvohlik berishicha, daryo ustidagi muzning qalinligi 2-3 tirsakka teng bo'lib, Amudaryo va Sirdaryoning istalgan yeridan yurib o'tish mumkin edi. Qorning qalinligi esa ba'zi yerlarda 2 nayza uzunligiga teng kelardi. Sovuq va bo'ronlardan ko'plab odamlar va otlar halok bo'ldi. Xitoy sari harakatni davom ettirayotgan Amir Temur 27-fevral kuni o'trorga yetib keldi. Bu yerdagi qo'shinga yo'lga otlanishga buyruq berdi. O'z xotinlari va qizlari bilan xayrashib, ularga Samarqandga qaytib ketishni buyurdi. 1405-yil 1-aprelda bezgak kasaliga chalinib, vafot etdi.<sup>5</sup>

Xulosa qilib aytish mumkinki, Amir Temur sultanati mavjud bo'lib turgan davrda buyuk ipak yo'li bo'ylab qo'shni mamlakatlar bilan qizg'in savdo aloqalarida choy va ot muhim mahsulot hisoblangan. Samaerxan va Xitoy (Min) davlatining markaziy shaharlari ot sotadigan bozorlar mavjud ekanliligi xususida mahlliyl manbalarda ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bu aloqalarning bir qismi sifatida otlar savdosи ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, Xitoyda past bo'yli mo'g'ul otlaridan ko'ra chaqqonroq va chopqirroq Movarounnahr otlari qadrlangan va ularni Xitoya keltirish, savdo ishlarida zotdor otlar olib kelganlarga imtiyozlar berish kabi rag'batlantirishlar orqali Xitoy armiyasida ot taqchillagini kamaytirishga harakat qilingan. Keyinchalik

<sup>5</sup> "Ikki buyuk sarkarda" Ivvanin.

ushbu ikki qudratli imperiyalar o'rtasida munosabatlar yomonlashadi. Amir Temurning to'satdan vafoti Xitoyga qarshi yurishni to'xtashiga sabab bo'ladi. Xitoy bozorlaridagi choy va ot savdosi Sohibqiron Amir Temur vafotidan so'ng Temuriyzoda shahzodalar Shohruh va Ulug'bek davrlarida ham davom etdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mixail Ivanin "Ikki buyuk sarkarda" Toshkent-1994-yil
2. Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma" Toshkent-1996-yil
3. Shohistaxon Uljayeva "Amir Temur diplomatiyasi" Toshkent-2018-yil
4. Temuriylar sulolasasi nefrit buyumlari. Gonkongdagi Xitoy universiteti. (帖木儿王朝玉器 许晓东 香港中文大学文物馆)
5. Kenjaev Sardor (PhD), dotsent Buxoro davlat Pedagogika Instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) "Amir Temur va Temuriylar sulolasining Xitoy bilan munosabatlarida choy va ot savdosi
6. Kenjayev S.N.Amir Temurning Xitoy bilan munosabatlari tarixi XIV asrning 70 yillari-XV asr boshlari.tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi.